JIZZAX VILOYATI ARNASOY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-noyabr | 255-3-43-Q/24 | Arnasoy tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-son Qonunining 9-bobi, 39-40-moddasiga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo’yish tartibi to’g’risida”gi Nizomga asosan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-sonli qarorining 8.2-bandiga asosan tumanda 2025-yilga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini eng kam sonini belgilash va ish o’rinlarini zaxiraga qo’yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo`lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-son Qonunining 9-bobi, 39-40-moddasiga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun, ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi tashkilotlarning ro‘yxatdagi xodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 77 ta ish o‘rinlarini zaxiralash, 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha manzilli jadval 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.**

2. O‘zbekiston Respublikasining maskur Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun, ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2025 yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

- 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg`iz otaga yoki onaga, shuningdek ko`p bolali, ota-onalar uchun 7 foiz (17 kishi);

- Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 7 foiz (38 kishi);

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy gvardiyasining, Davlat xafsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (5 kishi);

- Nogironlar uchun 3 foiz (6 kishi);

- Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (3 kishi);

- Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 7 foiz (4 kishi);

- Odam savdosi qurbonlari uchun 7 foiz (0 kishi);

- Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan kasallikga chalingan fuqarolar uchun 7 foiz (0 kishi);

- Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar 7 foiz (4 kishi).

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilsin.

4. Ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yiladigan har bir korxona, tashkilot va muassasalarda kasblar va lavozimlar ro‘yxati keltirib o‘tilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlariga;

-yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida

25 % (yigirma besh foizi) miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta'minlash ;

- muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlanashi, bu haqda tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag`llikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo’limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Ushbu qarorni bajarmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasa rahbarlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy jarima solinishi ko‘zda tutilsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

8. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 martdagi PQ–4227-sonli qarorining 3-band 4-qismi. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

9. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (A.Yuldashev) bir hafta muddatda ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ismatov zimmasiga yuklatilsin.

Arnasoy tuman hokimi **O.Musanov**

Arnasoy tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
255-3-43-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hudidida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

Tarkibi:

1. Z.Ismatov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - *komissiya raisi*
2. A.Yuldashev	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashi bo‘limi boshlig‘i - *komissiya raisi o‘rinbosari*
3. A.Atakulov	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlari markazi direktori - *komissiya a’zosi*
4. O.Omonov	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i - *komissiya a’zosi*
5. J.Esirgapov	Tuman KQ va BK bo’limi ishsizlarni hisobga va olish ishga joylashtirish bosh mutaxassisi - *komissiya kotibi*.

Arnasoy tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
255-3-43-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Arnasoy tumani bo‘yicha 2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha
MANZILLI JADVAL

T/p	Topshiriq belgilangan korxonalar nomi	Korxonani IIN raqami	Korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	Shu jumladan:								Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun (20.03.1997 yil VM-153-son qarori)
					O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar;“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari;	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Oilaviy (maishiy) zo'rovonlikdan jabrlanganlar	Odam savdosidan jabrlanganlar	
1	1-sonli "Guncha" nomli MTT	206931271	36	1	1								
2	2-sonli "Boychechak" nomli MTT	206931288	24	1		1							
3	3-sonli "NILUFAR" nomli MTT	206931295	32	1		1							
4	4-sonli "LOLA" nomli MTT	206931304	34	1		1							
5	5-sonli "Navro'z" nomli MTT	206931311	35	1	1								
6	6-sonli "Nihol" nomli MTT	206931328	33	1	1								
7	7-sonli "Binafsha" nomli MTT	206940450	20	1		1							
8	8-sonli "Shalola" nomli MTT	305428300	30	1		1							

9	10-sonli "Shirintoy-2020" nomli MTT	307976616	26	1				1					
10	11-sonli "E'zoza" nomli MTT	308159396	27	1				1					
11	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	201023154	51	2		1			1				
12	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206879605	57	2	1	1							
13	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203204172	45	1		1							
14	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203204157	26	1			1						
15	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203193204	54	2	1	1							
16	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203679659	59	2		1		1					
17	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203679666	47	1	1								
18	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	204070135	100	3	1	2							
19	9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206879613	34	1					1				
20	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920128	31	1		1							
21	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206879620	42	2		1	1						
22	12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920135	32	1		1							
23	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	204012657	42	2	1	1							
24	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920143	44	2	1	1							
25	15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920150	34	1		1							
26	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206879637	39	1		1							
27	17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920104	35	1		1							
28	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920111	27	1		1							
29	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206920167	26	1		1							
30	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203210625	70	2				1			1		
31	22-sonli Ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta talim maktab-internati	206180449	51	2	1	1							
32	"ARNASOY TUMAN 5-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI" DM	203114585	54	2		1				1			

33	"BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	207124855	44	2		2							
34	Maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi	200331588	48	2		1	1						
35	Kasb-hunar maktabi	201762763	61	2		1				1			
36	Davlat sanitriya-epidemiologiya nazorat markazi	200331549	45	2	1			1					
37	"ARNASOY TUMANI SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DM	305084042	45	1	1								
38	"OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	200331524	74	3	1		1				1		
39	PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI ARNASOY TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI	309870684	42	2		2							
40	4-sonli Madaniyat va aholi dam olish markazi	207235535	27	1		1							
41	Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi	200331944	45	1						1			
42	Arnasoy tuman sport maktabi	203235388	54	2		1	1						
43	VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200331556	21	1		1							
44	Тиббиёт бирлашмаси	200331571	516	14	4	5		1	1	1	2		
Жами :			**2319**	**77**	**17**	**38**	**5**	**6**	**3**	**4**	**4**	**0**	**0**